

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAJABOVA NILUFAR DAVLATBOY QIZI

**YER OSTI SUVLARI SIFAT INDEKSINI ANIQLASH VA GAT ASOSIDA
BAHOLASH (AMUDARYO TUMANI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rajabova Nilufar Davlatboy qizi

Yer osti suvlari sifat indeksini aniqlash va GAT asosida baholash
(Amudaryo tumani misolida)..... 3

Раджабова Нилуфар Давлатбаевна

Определение индекса качества подземных вод и их оценка на основе
ГИС (на примере Амударьинского района)..... 21

Rajabova Nilufar Davlatboy kizi

Determination of the quality index of groundwater and its assessment
based on GIS (A Case Study of the Amudarya District)..... 40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAJABOVA NILUFAR DAVLATBOY QIZI

**YER OSTI SUVLARI SIFAT INDEKSINI ANIQLASH VA GAT ASOSIDA
BAHOLASH (AMUDARYO TUMANI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/B1510 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sherimbetov Vafabay Xalilullaevich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alimjanova Xolisxon Alimjanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Raxmonov Ikrom Abdukarimovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat Agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.B.01.15 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "27" fevral soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: (+99871) 227-15-44).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" fevraldagi 3-raqamli reestr bayonnomasi).

X.S. Eshova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, biologiya fanlari doktori, professor

J.A. Mirzayev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, biologiya fanlari falsafa doktori,
dotsent

Z.A. Jabbarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda toza ichimlik suvi tanqisligi global ekologik va ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning 2022-yilda “Groundwater: Making the Invisible Visible” deb nomlangan hisobotiga ko‘ra, 2050-yilga kelib dunyo aholisining yarmidan ortig‘i toza ichimlik suvi tanqisligiga duch keladi. Bunday sharoitda chuchuk suv zaxiralarining 99 % ini tashkil etuvchi yer osti suvlari toza ichimlik suvi manbai sifatida kelajakda kutilayotgan muhim potensial resurs deb qaraladi. Sababi yer osti suvlarining chuqur qatlamlarda joylashuvi va tabiiy filtrlash xususiyati ularni iqlim o‘zgarishiga qarshi bufer tizimi bilan ta‘minlaydi¹. Afsuski, so‘nggi o‘n yilliklarda agrotsenozlarda noto‘g‘ri sug‘orish, ortiqcha kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlar qo‘llanilishi, sanoat chiqindilari va kollektor-zovur suvlarining ochiq suv havzalariga tashlanishi tufayli yer osti suvlarining sifati keskin pasayishiga olib kelmoqda². Shuning uchun ham yer osti suvlarining sifati va miqdorini muhofaza qilish, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va cheklangan tabiiy resurslar sharoitida dunyo aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalalarini hal etish ham nazariy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda, hozirgi kunda tabiiy yer osti ichimlik suvlari monitoringini takomillashtirishda ko‘plab olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yer osti suvlari monitoringi yer usti suvlariga nisbatan murakkab bo‘lib, ilg‘or texnik va ilmiy yondashuvlarni talab etadi³. Shu nuqtai nazardan, Geoaxborot tizimlari (GAT) va masofaviy zondlash (RS) texnologiyalari eng samarali innovatsion vositalar sifatida keng qo‘llanilmoqda⁴. Ayniqsa, ArcGIS platformasida qo‘llaniladigan IDW va Kriging interpolatsion usullari orqali suv sifatini fazoviy modellashtirib, ekologik xavfli zonalar, xavfsiz ichimlik suvi manbalari hamda ichimlik suvi sifati bilan bog‘liq kasalliklar yuqori kuzatiladigan hududlarni aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda yer osti suvlarining sifat holatini baholash va ularni muhofaza qilishga qaratilgan monitoring tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda suv ta‘minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy suv tozalash inshootlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, qishloq hududlarida markazlashtirilgan ichimlik suvi tarmoqlari kengaytirish ishlari natijasida suv ta‘minoti qamrovi darajasi sezilarli darajada oshirildi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “aholini sifatli va xavfsiz ichimlik suvi bilan ta‘minlash, ichimlik suvi ta‘minoti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suv taqsimoti va

¹ UNESCO (2022). Groundwater, making the invisible visible. In the UN World Water Development Report 2022. Retrieved from the UNESCO website on August 23, 2025: <https://www.unesco.org/reports/wwdr/2022/en>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-4040-son): <https://lex.uz/docs/-4087011>

³ Jagtap S. (2023). Surfaced and Groundwater Monitoring Water Monitoring A Key to Sustainable Water Management: <https://www.cognitivemarketresearch.com/articles/surfaced-and-groundwater-monitoring-water-monitoring-a-key-to-sustainable-water-management>

⁴ NASA (2023). Environmental Investigations, Groundwater Monitoring: <https://www.nasa.gov/centers-and-facilities/white-sands/environmental-investigations-groundwater-monitoring/>

sifatini nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish hamda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish⁵” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda yer osti ichimlik suvlarining sifat holatini ilmiy asosda o‘rganish va baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida⁶”gi farmoni, 2022-yil 7-dekabrda PQ-439-sonli “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida⁷”gi, 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-sonli “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida⁸”gi qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda yer osti suvlarining sifatini ekologik nuqtai nazaridan baholash bo‘yicha global miqyosda keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ushbu tadqiqotlarda yer osti suvlarining toksiklik xususiyati va turli xavfli kasalliklar orasidagi bog‘liqliklari tadqiq qilingan. Ma‘lumotlarni GAT asosida fazoviy tahlil qilish va xaritalashtirish orqali integratsiyalash usullari ham keng tatbiq etilmoqda. Mazkur metodologiyalarni ishlab chiqishda va rivojlantirishda bir qator olimlar, jumladan, R.K. Horton (1965), G.N. Soyer va D.L. Makkarti (1967), R.M. Braun (1972), S.N. Devis va R.J. DeWiest (1966), L. Fewtrell (1996), Pizarro Fernando (1999), P.J. Stuyfzand (1989), N. Choudhury (2022), K.K. Verma (2018), Meenakshi va R.C. Maheshwari (2006), Salman Tavassoli va Farzad Mohammadi (2017), D.D. Patel (2023), M.G. Uddin, S. Nash, A.I. Olbert (2023), T. Hurley, R. Sadiq, A. Mazumder (2012), Alaa Farouk Abukila (2012), Peifang Leng (2019), M. Marselina, F. Wibowo va A.Mushfiroh (2022), N.Kayemah, R. Al-Ruzouq, A.Shanableh, va A.G. Yilmaz (2021), D.D. Patel, D.J. Mehta, H.M. Azamathulla, M.M.Shaikh, S. Jha va U. Rathnayake (2023), D.K. Lukhabi, P.K. Mensah, N.K. Asare, T. Pulumuka-Kamanga va K.O. Ouma (2023), M. Kachroud, F. Trolard, M. Kefi, S.Jebari va G. Bourrié (2019), Tayyab M., Aslam R. A., Farooq U., Ali S., Khan S. N., Iqbal M., Saddique N. (2023) va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning hissasi katta bo‘lgan.

MDH davlatlari olimlari tomonidan yer osti suvlarini sifat ko‘rsatkichlari asosida tasniflash va suv sifat indekslarini hisoblashda zamonaviy gidrokimyoviy

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019 yildagi PF-5863-son

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.12.2022 yildagi PQ-439-son

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.04.2023 yildagi PQ-107-son

va statistik usullarni sohaga qo'llash bo'yicha ham keng qamrovli ishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar A.V. Kartoshova (2017), U. Zhalmagambetova, D. Assanov, A. Neftissov, A. Biloshchytskyi va I. Radelyuk (2024), D. Adenova, S. Tazhiyev, J. Sagin, M. Absametov, Y. Murtazin, L. Trushel, O. Miroshnichenko va A. Zaryab (2023) va boshqa olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda yer usti va yer osti suvlarining sifat tarkibini, ularni satxini, miqdoriy o'zgarishlarini, muhofaza qilish hamda samarali foydalanish chora-tadbirlariga qaratilgan tadqiqotlar E.I. Chembarisov (2020), R.A. Kulmatov (2008), S.A. Adilov (2021), I. Turdimambetov (2021), N. Komilova (2021), A. Nuratdinov (2023), S. Hasanov (2021), Sh. Rahmatullaev va J. Kazbekov (2012), B. Amanov (2023), U. Sadikova (2023), B. Alixanov va M. Juliev (2021), M. Ibrohimov (2011), B.P. Boltaboyeva (2023), M.A. Yakubov (2011), K. Gapporov (2025), M. Khamidov (2022), Sh.T. Otaboev va T.I. Iskandarov (1994), A. Salohiddinov (2025) va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mazkur sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda yer osti suvlari sifat indeksini aniqlash va ularni ichimlik suvlari sifatida baholash hamda sifat ko'rsatkichlarini GAT asosida xaritalashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli ushbu dissertatsiya ishi ilg'or xalqaro metodologiyalar, zamonaviy laboratoriya tahlillari, WQI (CCME, DWA va yangi DUA) modellari hamda GAT texnologiyalari asosida O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida, Qoraqalpog'iston Respublikasining janubida joylashgan Amudaryo tumani aholisining ichimlik sifatida foydalaniladigan yer osti suvlarini ilmiy asosda o'rganish, ularning sifatini baholash va xaritalashtirish masalalariga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Global iqlim o'zgarishi sharoitida flora va faunaning bioekologik xossa-xususiyatlarini tadqiq qilish, bioxilma-xilligini saqlash, tuproq-suv resurslarining ekologik holatlarni baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish" (2021-2025) mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Amudaryo tumani hududida ichimlik suvi sifatida foydalanilayotgan yer osti suvlarining sifat indeksini aniqlash va GAT asosida baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot hududida ichimlik suvi sifatida foydalanilayotgan yer osti suvlarining holatini o'rganish va kuzatuv nuqtalarini belgilash;

suv sifati ko'rsatkichlarini aniqlash va statistik tahlillarini amalga oshirish;

tadqiqot hududida ichimlik suvi sifatida foydalanilayotgan yer osti suvlarining aholi salomatligiga ta'sirini baholash;

GAT asosida yer osti ichimlik suvlari sifati ko'rsatkichlarini tavsiflovchi elektron xaritalar ishlab chiqish;

yer osti suvlari sifati ko'rsatkichlarini kompleks baholash uchun yangi "Dynamic Unweighted Average Water Quality Index (DUA-WQI)" modelini ishlab chiqish va shu asosida avtomatlashtirilgan shaklini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Amudaryo tumanida 10-25 m chuqurlikda shakllangan ichimlik suvi sifatida foydalanilayotgan yer osti suvlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Amudaryo tumanida ichimlik suvi sifatida foydalanilayotgan yer osti suvlari sifatini belgilovchi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari (pH, KMnO_4 li oksidlanish qobilyati, NO_3^- , umumiy qattqlik (TH), umumiy quruq qoldiq (TDS), Cl^- , SO_4^{2-} , Fe^{2+} , F^- , Cu^{2+}), suv sifati indeksi (DUA, DWA va CCME), ayrish va hazm tizimi kasalliklari, yer osti suvlari sifat ko'rsatkichlarini fasllar kesimida o'zgarish dinamikasi hamda yer osti suvlarini ifloslantiruvchi omillar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot hududi yer osti suvlari sifatini belgilovchi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarni aniqlashda fotometrik, titrimetrik, gravimetrik, spektrofotometrik usullardan foydalanilgan. Suv sifati DUA, DWA va CCME-WQI modellari asosida kompleks baholash usullari orqali amalga oshirilgan. Deskriptiv yoki tasviriy statistikalar (o'rtacha, mediana, eng kichik va eng yuqori qiymatlar), Pearson korrelyatsiyasi va chiziqli Liner regressiya usullari yordamida amalga oshirilgan. GAT asosida yer osti suvlarining sifatini tavsiflovchi elektron xaritalarni ishlab chiqishda geostatistik IDW interpolatsiya usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor yer osti ichimlik suvlari sifatini baholash uchun "Dynamic Unweighted Average Water Quality Index (DUA-WQI)" modeli ishlab chiqilgan;

yer osti ichimlik suvlari sifatini baholashda alohida ko'rsatkichlar asosidagi yondashuvdan integral indeksga asoslangan baholash tizimiga o'tish ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

Amudaryo tumani yer osti ichimlik suvlari sifat ko'rsatkichlarining fasliy o'zgarish dinamikasi, yer usti suvlarining infiltratsiyasi hamda antropogen yuklama ta'siri bilan bog'liqligi isbotlangan;

tadqiqot hududida shakllangan yer osti ichimlik suvlarining asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida DUA-WQI, DWA va CCME modellaridan foydalangan holda suvlarning sifat indeksi aniqlanib, ichimlikka yaroqlilik darajasi kompleks baholangan;

geoaxborot texnologiyalari asosida yer osti suvlarining sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi elektron xaritalari va suvdan maqsadli foydalanishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

DUA-WQI modeli asosida yer osti suvlari sifatini kompleks baholashning onlayn avtomatlashtirilgan veb-kalkulyator platformasi ishlab chiqilgan va shu orqali suv sifatini qisqa vaqt ichida baholash imkoniyati yaratilgan;

DUA-WQI, DWA va CCME modellaridan foydalangan holda 10-25 m chuqurlikdagi yer osti suvlarining asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida sifat indeksi aniqlangan va ichimlikka yaroqlilik darajasi baholangan;

yer osti suvlarining yuqori minerallashtirilganligi va aholi orasida urolitioz va xolelitioz kasalliklar yuzaga kelishi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlangan;

yer osti suvlari sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi elektron xaritalar ishlab chiqilib, ichimlik suvlari ekologik xavfli va xavfsiz hududlarga ajratilgan;

tadqiqot natijalari asosida hudud ichimlik suvi sifatini boshqarish, ekologik xavflarni kamaytirish hamda yer osti suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan ma'lumotlarni matematik va geostatistik va dunyo standartlariga javob beradigan bir qator zamonaviy uslublar asosida tahlil qilinganligi, olingan natija hamda xulosalarni ilmiy asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan, nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi, natijalarni amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yer osti ichimlik suvlari sifatini baholash maqsadida DUA-WQI (Dynamic Unweighted Average Water Quality Index) modelini ishlab chiqilganligi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida ichimlik uchun yaroqlilik darajasini integral, tizimli va dinamik baholash imkoniyati yaratilganligi, alohida ko'rsatkichlar asosidagi yondashuvdan integral indeksga asoslangan baholash tizimiga o'tish muhimligi, yer osti suvlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari iqlimiy sharoitlar, yer usti suvlari infiltratsiyasi, sug'oriladigan maydonlardan kelib chiqadigan yuklama va xo'jalik faoliyati ta'siri ostida fasllar kesimida dinamik ravishda o'zgarib turishi isbotlanganligi, DUA-WQI, DWA va CCME modellari asosida kompleks baholanganligi, suv manbalari xavfli va xavfsiz ekologik hududlarga ajratilganligi hamda shu asosda yer osti ichimlik suvlari sifatini monitoring qilish, xavflarni baholash va suvdan maqsadli foydalanishning ilmiy asoslari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati DUA-WQI modeli asosida yer osti suvlarining sifatini kompleks baholash onlayn avtomatlashtirilgan veb-kalkulyator platformasi yaratilganligi, DUA-WQI, DWA va CCME modellaridan foydalangan holda 10-25 m chuqurlikdagi yer osti suvlarining asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida sifat indekslari aniqlanganligi, ichimlikka yaroqlilik darajasi baholanganligi, aholi orasida urolitioz va xolelitioz kasalliklar yuzaga kelishi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar aniqlanganligi, yer osti suvlari sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi elektron xaritalar ishlab chiqilganligi shuningdek, ichimlik suvi sifatini boshqarish, ekologik xavflarni kamaytirish hamda yer osti suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yer osti suvlari sifat indeksini aniqlash va GAT asosida baholash (Amudaryo tumani misolida) mavzusidagi dissertatsiya ishidan olingan natijalar asosida:

yangi DUA-WQI modeli va uning avtomatlashtirilgan onlayn kalkulyatori hamda GAT asosida yaratilgan yer osti suvlari sifatini tavsiflovchi raqamli

xaritalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 02/18-3279-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, vazirlik tizimida yer osti suvlarining sho‘rlanish jarayonlarini nazorat qilish, sifat ko‘rsatkichlari asosida ekologik jihatdan xavfli zonalarini aniqlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

Amudaryo tumanida yer osti suvlarining sifatini alohida va kompleks baholash usullari asosida olingan natijalar, raqamli xaritalar, aholi salomatligiga xavf soluvchi hamda turli kasalliklar shakllanishiga asos bo‘luvchi indikatorlar dinamikasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2025-yil 10-sentabrdagi 02-16/8777-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ichimlik suvi xavfsizligini ta’minlash, gigiyenik me’yorlarga mos kelmagan hududlarda profilaktik va rejalashtirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ichimlik suvi sifatining fasllar kesimidagi ifloslanish xavfini kamaytirish hamda yer osti suvlari orqali kasalliklar tarqalishining oldini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro konferensiyalarda nashr bo‘lgan. Shulardan 1 tasi SCOPUS, WOS va boshqa nufuzli bazalarda indekslanadigan konferensiya materialida e’lon qilingan. Shuningdek, 2 ta tezis respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shulardan 1 ta maqola SCOPUS (Q1), WOS kabi nufuzli bazalarda indekslanadigan jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va uning predmetlari, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarning ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotdan olingan natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyada **“Amudaryo tumanining umumiy ekologik holati (adabiyotlar va materiallar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot

olib borilgan joyning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, yer osti suvlarining shakllanishi va sifati, kollektor-zovur suvlaridan qayta foydalanish hamda suv resurslarining qishloq xo'jaligi ta'sirida ifloslanishi haqida mavjud adabiyotlar, milliy va xalqaro tashkilotlarning ko'p yillik hisobotlarini tahlil qilish orqali tadqiq qilingan.

Amudaryo tumani 1991-2024-yillar mobaynida yillik o'rtacha havo harorati 0.13°C ga va yoz mavsumidagi o'rtacha yillik harorat $0,33^{\circ}\text{C}$ ga oshgan. Amudaryo tumanida sug'oriladigan yerlar 39515 ga ni tashkil etib, shundan 32506 ga ekin maydonlaridir. Ekin maydonlarining 29,4 % i sho'rlanmagan, 70,6 % i turli darajada sho'rlangan bo'lib, ular orasida kuchli sho'rlangan - 2,5 %, o'rtacha sho'rlangan - 35 % va kam sho'rlangan - 33,1 % ni tashkil qiladi. Sizot suvlarining chuqurligi 0-2 m oralig'ida bo'lib, ularning eng ko'p qismi (29,4 ming ga) 1,5-2 m chuqurlikda joylashgan. Novegetatsiya davrida sizot suvlarining chuqurligi o'rtacha 1,56-3,11 m, vegetatsiya davrida esa 0,82-3,03 m oralig'ida o'zgaradi. Ularning mineralizatsiya darajasi 1909-3992 mg/l oralig'ida bo'ladi. Bu hududda yer osti suvlari asosan Amudaryo daryosi suvi orqali shakllanadi. Keyingi vaqtlarda daryo suvining mineralligi ortishi yer osti suvlarining sifati pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Tumanda hosil bo'lgan kollektor zovur suvlari tarkibidagi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning standarti bilan taqqoslaganimizda EC ning o'rtacha qiymatlari 2021-yilda $5,56 \pm 0,56$ dS/m, 2022-yilda $5,45 \pm 0,77$ dS/m va 2023-yilda $5,82 \pm 1,36$ dS/m ni tashkil etadi. Bu diapazonlar FAO talabi (0-3 dS/m) ga mutlaqo mos emasligini ko'rishimiz mumkin. Mg^{2+} o'rtacha qiymatlari 9-11 mEq/l oralig'ida bo'lib, FAO tavsiyalaridan (0-5 mEq/l) oshadi. Na^{+} ning o'rtacha qiymati 18,37 dan 57 mEq/l gacha bo'lib, FAO standarti (0-40 mEq/l) ga deyarli mos kelmaydi. Na^{+} ning Ca^{2+} va Mg^{2+} ga nisbatan adsorbsiya nisbati (SAR) esa 2021-yilda $3,34 \pm 0,22$, 2022-yilda $6,03 \pm 3,01$ va 2023-yilda $11,26 \pm 6,17$ ni tashkil qilib, yillar davomida sezilarli o'sishni ko'rsatdi (FAO: 0-15).

1-jadval

Sizot suvlari va yer osti suvlarining o'zaro bog'liqlik koeffitsientlari (2021-2023)

Ko'rsatkichlar	TDS_S	NO_2^-	TH	Cl^-	SO_4^{2-}	TDS_G	F^-	Fe^{2+}	NO_3^-	Cu^{2+}	$\text{KMnO}_4\text{-OQ}$	pH
TDS_S	1											
NO_2^-	-0,64	1										
TH	1,00	-0,64	1									
Cl^-	0,94	-0,87	0,94	1								
SO_4^{2-}	0,91	-0,27	0,91	0,72	1							
TDS_G	0,75	-0,99	0,75	0,93	0,41	1						
F^-	-0,60	-0,23	-0,60	-0,29	-0,87	0,09	1					
Fe^{2+}	0,80	-0,05	0,80	0,54	0,98	0,20	-0,96	1				
NO_3^-	0,99	-0,73	0,99	0,97	0,86	0,82	-0,50	0,72	1			
Cu^{2+}	0,96	-0,84	0,96	0,99	0,75	0,91	-0,34	0,59	0,98	1		
$\text{KMnO}_4\text{-OQ}$	0,17	-0,86	0,17	0,50	-0,25	0,78	0,69	-0,46	0,28	0,45	1	
pH	0,14	0,67	0,14	-0,21	0,54	-0,55	-0,88	0,71	0,02	-0,15	-0,95	1

Eslatma: TDS_S - sizot suvlarining umumiy minerallik miqdori, ORP-permanganatli oksidlanish-qaytarilish potentsiali, TDS_G - yer osti suvining umumiy quruq qoldig'i.

Bu ekotizmda shakllangan yer osti suvlarining ifloslanishi asosan yer usti suvlari, tuproq resurslarining ifloslanishi, samarasiz drenaj tizimlari va hududning noqulay iqlim sharoiti bilan keskin bog‘liqlik mavjud bo‘lib, buning dalilini sizot suvlari va yer osti suvlari tarkibidagi sifat ko‘rsatkichlari orasida mavjud kuchli musbat korrelyatsiyalarda ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda belgilangan o‘n ikkita quduqlardan suv namunalarini davlat standarti (GOST 31861) ga mos holda olish tartibi, suv namunalarini konservatsiya qilish va tadqiqot uchun belgilangan o‘nta sifat indikatorlarining suvda mavjud miqdorlarini laboratoriya sharoitida aniqlash usullariga qaratilgan. Nazorat quduqlari joylashgan hududlari (OFY/MFY) va geografik koordinatalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Nazorat quduqlarining GPS asosida aniqlangan geografik koordinatalari

Hudud (MFY/OFY)	Quduq raqami	Shimoliy kenglik (°)	Sharqiy uzunlik (°)
Bo‘ston MFY	S1	42°06'52.0"N	60°03'17.5"E
Choy ko‘l OFY	S2	42°10'12.0"N	60°05'10.7"E
Oybek MFY	S3	42°07'40.1"N	60°03'03.7"E
Kiyuk ko‘pir OFY	S4	42°00'41.5"N	60°12'07.5"E
Besh tom OFY	S5	42°13'42.3"N	60°07'45.2"E
Xitoy OFY	S6	41°59'35.1"N	60°11'32.3"E
To‘lqin OFY	S7	42°10'19.2"N	60°07'17.7"E
Qipchoq SHFY	S8	42°13'11.4"N	60°06'07.2"E
Beruniy MFY	S9	42°06'58.3"N	60°04'05.0"E
Amir Temur MFY	S10	42°08'27.7"N	60°00'57.6"E
Arna bo‘yi OFY	S11	42°04'59.6"N	60°07'21.4"E
Olmozor. MFY	S12	42°07'23.4"N	60°04'48.1"E


Shuningdek ushbu bobda geostatistik usullardan “IDW interpolatsiyasi”, “Reclassify” va “Raster to Polygon” metodlarining birgalikda qo‘llanilishi asosida ma’lumotlar aniqligining keskin oshirilishi, natijalarning yuqori sifatli xaritalarda aks ettirish algoritmlari tahlil qilingan va tahlil jarayoni soddalashtirilgan (1-Rasmga qarang). GAT dasturlari orqali bunday yondashuvlar yer osti suvlarining ekologik, biologik va tibbiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishda muhim vositalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Yer osti suvlarining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholash”** deb atalgan uchinchi bobida nazorat quduqlarini o‘nta sifat ko‘rsatkichlari asosida dunyo bo‘yicha tan olingan xalqaro turli tashkilotlar va olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tasniflash usullari va ularni tizimlash (gibrid usul) orqali baholangan va olingan natijalar GAT dasturida IDW interpolatsiya usuli yordamida rangli xaritalar ishlab chiqildi. Quyida yer osti suvlarini tadqiq qilishda foydalanilgan nazaryalar va ularni tadqiqot obyektiga qo‘llashdan olingan natijalarning ayrimlari ketma-ketlikda qisqacha bayon qilingan:



1-Rasm. Yer osti suvlari sifatini Cl⁻ va SO₄²⁻ ko'rsatkichlari asosida GATda baholash

1. Yuqori NO_3^- va NO_2^- anionlariga ega suvni iste'mol qilish "Methemoglobinemia" (MetHb) ga olib keladi. Bu sindrom ko'proq chaqaloqlarda uchraydi. Uning yuzaga chiqish mexanizmida birinchi bo'lib, NO_3^- anionlari suv bilan birga organizmga kiradi va ichaklardagi mikroorganizmlar (Enterobacteriaceae, Bacteroides, Lactobacillus) NO_3^- anionlarini NO_2^- anionlariga aylantiradi.



NO_2^- anionlari qon tarkibiga qo'shib, Fe^{2+} ni methemoglobin - Fe^{3+} ga oksidlaydi.



NO_2^- anionlari qonning barcha to'qima hujayralariga qon yetkazish funksiyasini sekinlashtiradi va shu orqali gipoksiya yuzaga keladi. Tarkibida nitrat anionlari mavjud suvlarni doimiy iste'mol qilish natijasida organizmda saraton hujayralari paydo bo'lishi, yurak ritmi va markaziy asab tizmining buzilishi kabi belgilar yuzaga keladi⁹. Yevropa Ittifoqi (EU) va JSST ko'rsatmalarida NO_3^- 1 l suvda 50 mg/l dan oshmasligi kerak. O'zMSSt bo'yicha esa 45 mg/l eng yuqori REM bo'lib hisoblanadi. Tadqiqot uchun belgilangan barcha nazorat quduqlari suvi xalqaro va milliy standartlarga mosligi aniqlangan. Nazorat quduqlari suvini ilmiy asosda zaharlilik darajasini aniqlash va tumanda 10-25 m chuqurlikda shakllangan yer osti suvlari haqida xulosalar olish uchun JSST va AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) tomonidan tavsiya qilingan diapazonlarni integratsiya qilib to'rtta kotigoryadan iborat gibril usulga keltirildi. Bunda, $10 > \text{NO}_3^-$ mg/l bo'lganda "xavfsiz", 10-20 mg/l oralig'i "o'rtacha xavfli", 20-50 mg/l oralig'i "xavfli", $\text{NO}_3^- < 50$ mg/l bo'lganda "juda xavfli" toifalarga ajratish mumkin. Ushbu usulni yer osti suvlari tahliliga qo'llaganimizda, deyarli barcha namunalar "o'rtacha xavfli" toifaga mansub bo'lib, bu turdagi suvlar tumanning deyarli 94660-84515 ga ni egallaganligi ArcToolbox (Geometry Properties) dagi funksiyalar orqali aniqlandi.

Mavsumiy tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori NO_3^- miqdori odatda yoz faslida kuzatildi. Jumladan, 2-quduqda 15,7 mg/l, 6-quduqda 14,6 mg/l, 1-quduqda esa 13,6 mg/l qayd etildi. Shuningdek, 7- va 8-quduqlarda yoz oylarida 13,5 mg/l gacha yetadi. Bu holat, ehtimol, qishloq xo'jaligida azotli o'g'itlardan keng foydalanish natijasidan bo'lishi mumkin. Eng past NO_3^- konsentratsiyalari qish faslida kuzatilib, 11-quduqda 9,2 mg/l, 5-quduqda 8,7 mg/l, 1- va 9-quduqlarda 9,9 mg/l ni tashkil qiladi. Bu davrda qishloq xo'jaligi faoliyatining kamligidan bo'lishi mumkin.

2. O'n ikkita nazorat quduqlaridagi suvlarning qattiqligi 8 ekv/l dan 25 ekv/l gacha bo'lib, o'rtacha qiymat 10 ekv/l ga teng. Buni JSST standarti bilan taqqoslaganda suv namunalarining faqat 40 % i belgilangan eng yuqori REMdan oshmaydi. JSST standartida TH qiymati 500 mg/l (10 ekv/l) dan yuqori bo'lgan suvlar yaroqsiz deb hisoblanadi. O'zMSSt bo'yicha esa 7 ekv/l dan oshmasligi kerak. Lekin, bu qiymat Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun 10 ekv/l eng yuqori REM deb qaraladi². Tadqiqot hududidagi suvlarning 90% i qattiq yoki juda qattiq kotigoryaga mansub bo'lib, bu suvning sifatini keskin pasaytiradi. Suv namunalarini TH asosida toifalarga ajratishda 1967-yilda Soyer va Makkarti

⁹ Ward, M. H., Jones, R. R., Brender, J. D., De Kok, T. M., Weyer, P. J., Nolan, B. T., ... & Van Breda, S. G. (2018). Drinking water nitrate and human health: an updated review. International journal of environmental research and public health, 15(7), 1557.

¹⁰ Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifatini nazorat qilish (O'zMSSt 133:2024).

tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan foydalanildi. Bu usulda TH miqdoriga asosan to'rtta kategoriyalarga: 75 mg/l dan past bo'lgan suvlar "yumshoq", 75-150 mg/l oralig'idagi suvlar "o'rtacha qattiq", 150-300 mg/l "qattiq" va 300 mg/l dan yuqori bo'lgan suvlar esa "juda qattiq" suv sifatida tasniflanadi. Ushbu metodikani tadqiqot ob'ektiga qo'llaganimizda 2023-yilda suv namunalari qattqlik darajasi hudud bo'ylab ham, mavsumlar kesimida ham sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. 1-quduq barcha fasllarda yuqori TH qiymatlari bilan ajralib turadi: qish va bahorda 665 mg/l, yozda 610 mg/l, kuzda esa 500 mg/l qayd etilgan. Eng yuqori qattqlik darajasi 9-quduqda kuzatilgan bo'lib, kuz oyida 1845 mg/l gacha yetadi. Minimal qiymatlar 5- va 8-quduqlarda qayd etilgan bo'lib, qishda mos ravishda 465 mg/l va 465 mg/l, yozda esa 480 mg/l va 580 mg/l atrofida bo'ladi. Biroq bu quduqlarda ham ayrim mavsumlarda qattqlik darajasi keskin oshib, 800 mg/l gacha yetgan. Qish faslida qattqlik ko'rsatkichlari ko'plab quduqlarda yuqori bo'lib, 2-, 4-, 6-, 9- va 11-quduqlarda 800 mg/l dan oshadi. Bundan ko'rinib turibdiki, TH qiymatlarining keskin ortib borishi bilan yuqori namgarchilikka ega iqlim sharoiti o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud. Lekin, bahorda qiymatlar nisbatan pasaygan bo'lsa-da, 2-quduqda 975 mg/l ni barqaror holatni saqlab qoladi. Yoz oyida qattqlik ko'rsatkichlari aksariyat quduqlarda pasayish kuzatilsa, kuz faslida ayrim nuqtalarda, xususan 9-quduqda, qattqlik keskin oshib, maksimal qiymatlarni qayd etadi. Yer osti suvlarini TH qiymatlari asosida toifalarga ajratishda Soyer va Makkarti metodikasini qo'llashdan olingan natijalarga ko'ra, barcha nazorat quduqlarining suvlari "juda qattiq" suv toifasiga mansub bo'lib, bu toifadagi yer osti suvlari hududning deyarli 94660 ga maydonni egallaydi.

3. TDS miqdori 2023-2025-yillar davomida deyarli barcha suv namunalari 1000 mg/l dan yuqori va 2300 mg/l oralig'ida bo'lib, deyarli barcha suv namunalari JSST va O'zMS 133:2024 da qo'yilgan talablariga mos kelmasligi aniqlandi. Quduqlar suvini fasllar kesimida tahlil qilganimizda deyarli barcha mavsumlarda qish, bahor, yoz va kuzda TDS sezilarli darajada oshadi. Qishda 730 mg/l dan 1910 mg/l ga yetadi. Odatda bu faslda eng yuqori TDS miqdori 2-quduqda, eng past qiymat esa 8-quduqda kuzatildi. Bahor faslida TDS qiymatlari sezilarli darajada ortib, 1270 mg/l dan 2370 mg/l gacha o'zgaradi. Bu faslda, eng yuqori konsentratsiya 2-quduqda kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich 8-quduqga mos keladi. Shuningdek, yoz faslida ham TDS darajalari bahor faslidagi holatga o'xshash bo'lib, eng yuqori qiymat 1820,3 mg/l gacha yetadi. Kuzda TDS diapazonlari 730 mg/l dan 1910 mg/l gacha o'zgarib, eng past ko'rsatkich 3-quduqda, eng yuqori ko'rsatkich esa 9-quduqda kuzatildi. Yer osti suvlarini Amerikalik olimlar S.N. Davis va R.J. DeWiestlar tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha tekshirganimizda yer osti suvlarining deyarli 95 % i "Irrigatsiya maqsadlariga yaroqli" toifadagi suv turlariga mansub ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalarni GAT da interpolation usulida tahlil qilganimizda hududning taxminan 94660 ga maydonida asosan irrigatsiya suvlariga mos keladigan suv turlari egallaganligi aniqlandi.

4. Dissertatsiyaning "Yuqori minerallashgan (sho'rlangan) yer osti suvining buyrak faoliyati va hazm tizimiga salbiy ta'siri" deb nomlangan paragrafda Amudaryo tumanida yer osti suvlarining sho'rli va aholi orasida dominant kasalliklari bilan korrelyatsiyalari tahlil qilindi. Suvning sho'rli va qattqligi bilan

asosan ayrish tizimi kasalliklaridan siydik-tosh (*Urolithiasis*) va o't-tosh (*Cholelithiasis*) kasalliklari bilan kuchli musbat bog'liqlik mavjud bo'lib, o't-tosh va siydik-tosh kasalliklari bilan suv tarkibidagi umumiy qattqlik (TH) ($r=0,34;0,96$), Cl^- ($r=0,65;1$), umumiy quruq qoldiq yoki mineralligi (TDS) ($r=0,88;0,9$), NO_3^- ($r=0,45;0,99$), Cu^{2+} ($r=0,61;1$), SO_4^{2-} ($r=-0,07;0,76$) kabi ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi va shu orqali mahalliy aholi orasida uchraydigan *Urolitiyoz* va *Cholelithiasis* kasalliklarining keskin ortib borishi bevosita yer osti ichimlik suvining mineralligi bilan bog'liqligi o'z isbotini topdi (3-jadval).

3-jadval

Mineralligi yuqori yer osti suvining o't-tosh va siydik-tosh kasalliklari bilan korrelyatsiyasi

